XI. DEMOGRAFIK HOLAT VA BANDLIK

Navoiy viloyati va hududlarning tashkil topgan yillari hamda ularning markazlari

	Tashkil topgan yil	*Viloyat va tuman, shaharlar markazlari*	*Yer maydoni, ming. kv. km.*
Navoiy viloyati	**27.01.1992-y.**	**Navoiy sh.**	**109,48**
Navoiy sh.	1958-y.	Navoiy sh.	0,06
Zarafshon sh.	1972-y.	Zarafshon sh.	0,03
G‘ozg‘on sh.	03.05.2019-y.	G‘ozg‘on sh.	0,59
Karmana	09.09.1926-y.	Karmana sh-cha.	0,94
Konimex	29.12.1965-y.	Konimex sh-cha.	15,96
Qiziltepa	07.12.1970-y.	Qiziltepa sh.	2,19
Navbahor	12.03.1980-y.	Beshrabot sh-cha.	1,57
Nurota	29.09.1926-y.	Nurota sh.	5,94
Tomdi	03.07.1927-y.	Tomdibuloq sh-cha.	35,78
Uchquduq	25.03.1982-y.	Uchquduq sh.	45,01
Xatirchi	03.12.1964-y.	Yangirabot sh.	1,42

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2026- yil 1- iyul holatiga viloyatda doimiy aholi soni 1 118 497 kishini tashkil etdi va yil boshidan 6 599 kishiga yoki 0,6 foizga ko‘paydi.

Doimiy aholi soni[1)]

(2026- yil 1- iyul holatiga, kishida)

	Jami aholi	*shu jumladan:*		*1 kv. km ga to‘g‘ri keladiganlar soni*
		shahar aholisi	*qishloq aholisi*	
Jami	**1 118 497**	**551 806**	**566 691**	**10,2**
Navoiy sh.	172 940	172 940	-	2 766,6
Zarafshon sh.	92 331	92 331	-	3 526,8
G‘ozg‘on sh.	9 494	9 494	-	16,0
Karmana	145 979	47 449	98 530	155,0
Konimex	36 727	16 696	20 031	2,3
Qiziltepa	168 169	52 045	116 124	77,0
Navbahor	124 804	17 972	106 832	79,5
Nurota	92 291	52 722	39 569	15,5
Tomdi	15 380	5 117	10 263	0,4
Uchquduq	39 930	34 788	5 142	0,9
Xatirchi	220 452	50 252	170 200	155,5

Doimiy aholi soni

(2026-yil 1-iyul holatiga)



Aholining tabiiy harakati

(2026- yil yanvar-iyun)

	kishi			*har 1000 aholiga nisbatan* (promille)	
	2025-y.	*2026-y.*[1)]	*o‘sish, kamayish*	*2025-y.*	*2026-y.*[1)]
Tug‘ilganlar	11 480	10 724	-756	21,1	19,4
O‘lganlar	2 267	2 405	138	4,2	4,3
Tabiiy o‘sish	9 213	8 319	-894	16,9	15,1
Nikohlar	2 698	2 435	-263	5,0	4,4
Ajralishlar	682	673	-9	1,3	1,2

[1)] dastlabki ma’lumot

[1)] dastlabki ma’lumot

Har 1 000 aholiga nisbatan tabiiy harakati (promille)



Tug‘ilish darajasi. 2026- yilning yanvar-iyun oylarida tug‘ilganlar soni 10 724 kishini tashkil qildi va 2025-yilning yanvar-iyun oylariga (11 480 kishi) nisbatan 756 taga kamaygan. Tug‘ilish koeffitsiyenti mos ravishda 19,4 promilleni tashkil qildi va 2025-yilning yanvar-iyun oylariga (21,1 promille) nisbatan 1,7 promillega kamaydi.

Tug‘ilish koeffitsiyenti viloyatning Nurota tumanida (24,6 dan 20,2 promillega), Zarafshon shahrida (23,3 dan 19,5 promillega), Navoiy shahrida (21,0 dan 18,7 promillega), Karmana tumanida (21,2 dan 18,9 promillega), Uchquduq tumanida (17,9 dan 15,9 promillega), Konimex tumanida (18,0 dan 17,1 promillega), Navbahor tumanida (19,0 dan 18,2 promillega), Tomdi tumanida (12,4 dan 11,9 promillega), Qiziltepa tumanida (20,7 dan 20,2 promillega) va Xatirchi tumanida (22,0 dan 21,6 promillega) kamayish kuzatilib, G‘ozg‘on shahrida (14,4 dan 14,9 promillega) oshishi kuzatildi.

O‘lim darajasi. 2026- yilning yanvar-iyun oylarida o‘lganlar soni 2 405 kishini tashkil qildi va 2025-yilning yanvar-iyun oylariga (2 267 kishi) nisbatan 138 taga ko‘paydi. O‘lim koeffitsiyenti mos ravishda 4,3 promilleni tashkil qildi va 2025- yilning yanvar-iyun oylariga (4,2 promillega) nisbatan oshganligini ko‘rsatmoqda.

O‘lganlar soni Konimex tumanida (5,4 dan 6,6 promillega), Tomdi tumanida (4,0 dan 4,8 promillega), Navbahor tumanida (3,9 dan 4,6 promillega), Qiziltepa tumanida (4,0 dan 4,5 promillega), Zarafshon shahrida (2,5 dan 2,9 promillega), Uchquduq tumanida (3,4 dan 3,6 promillega) va Karmana tumanida (4,9 dan 5,2 promillega) oshgan bo‘lsa, G‘ozg‘on shahrida (5,2 dan 3,4 promillega), Nurota tumanida (5,0 dan 4,6 promillega), Navoiy shahrida (4,1 dan 3,8 promillega) va Xatirchi tumanida (4,2 dan 4,2 promillega) kamayganini kuzatishimiz mumkin.

Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni

(yanvar-iyun oylarida, birlik)

	Tuzilgan nikohlar		*Nikohdan ajralishlar*	
	2025	*2026*	*2025*	*2026*
Jami	**2 698**	**2 435**	**682**	**673**
Navoiy sh.	469	445	186	153
Zarafshon sh.	191	159	57	49
G‘ozg‘on sh.	11	9	1	0
Karmana	428	355	103	94
Konimex	93	65	29	25
Qiziltepa	388	392	74	108
Navbahor	314	273	37	41
Nurota	174	177	27	29
Tomdi	25	23	1	2
Uchquduq	92	66	22	22
Xatirchi	513	471	145	150

Viloyat bo‘yicha tuzilgan nikohlarda hududlarning ulushi, % da



Viloyat bo‘yicha nikohdan ajralishlarda hududlarning ulushi, % da



Nikohlar va ajralishlar. 2026- yilning yanvar-iyun oylarida FHDYo organlarida 2 435 ta nikohlar va 673 ta ajralishlar ro‘yxatga olindi. Har ming aholiga nisbatan 4,4 promille nikoh (2025-yil yanvar-iyun oylarida 5,0 promille) va 1,2 promille ajralishlar (2025-yil yanvar-iyun oylarida 1,3 promille) ga to‘g‘ri keldi.

Tuzilgan nikohlar viloyatning Konimex tumanida (5,1 dan 3,6 promillega), Uchquduq tumanida (4,7 dan 3,3 promillega), Karmana tumanida (6,1 dan 4,9 promillega), Zarafshon shahrida (4,2 dan 3,5 promillega), Navbahor tumanida (5,1 dan 4,4 promillega), G‘ozg‘on shahrida (2,4 dan 1,9 promillega), Xatirchi tumanida (4,8 dan 4,3 promillega), Navoiy shahrida (5,6 dan 5,2 promillega) va Tomdi tumanida (3,3 dan 3,0 promillega) kamaygani kuzatildi.

Nikohdan ajralganlar viloyatning Qiziltepa tumanida (0,9 dan 1,3 promillega), Tomdi tumanida (0,1 dan 0,3 promillega), Navbahor tumanida (0,6 dan 0,7 promillega) va Xatirchi tumanida (1,3 dan 1,4 promillega) oshgani kuzatildi.

Aholining tabiiy harakati koeffitsiyentlari

(yanvar-iyun oylarida 1 000 aholi soniga nisbatan)

promille

	Tug‘ilganlar		O‘lganlar		Aholining tabiiy o‘sishi	
	2025-y.	2026-y.[1)]	2025-y.	2026-y.[1)]	2025-y.	2026-y.[1)]
Jami	**21,1**	**19,4**	**4,2**	**4,3**	**16,9**	**15,1**
Navoiy sh.	21,0	18,7	4,1	3,8	16,9	14,9
Zarafshon sh.	23,3	19,5	2,5	2,9	20,8	16,6
G‘ozg‘on sh.	14,4	14,9	5,2	3,4	9,2	11,5
Karmana	21,2	18,9	4,9	5,2	16,3	13,7
Konimex	18,0	17,1	5,4	6,6	12,6	10,5
Qiziltepa	20,7	20,2	4,0	4,5	16,7	15,7
Navbahor	19,0	18,2	3,9	4,6	15,1	13,6
Nurota	24,6	20,2	5,0	4,6	19,6	15,6
Tomdi	12,4	11,9	4,0	4,8	8,4	7,1
Uchquduq	17,9	15,9	3,4	3,6	14,5	12,3
Xatirchi	22,0	21,6	4,2	4,2	17,8	17,4

Viloyat bo‘yicha aholining tabiiy o‘sish koeffitsiyenti, promilleda



[1)] dastlabki ma’lumot

Tabiiy o‘sish. 2026- yil yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy o‘sish koeffitsiyenti mos ravishda 15,1 promilleni tashkil qildi va 2025-yilning yanvar-iyun oylariga (16,9 promille) nisbatan 1,8 promillega kamayganini ko‘rsatmoqda.

Tabiiy o‘sish koeffitsiyenti faqatgina G‘ozg‘on shahrida (9,2 dan 11,5 promillega) oshishi kuzatildi.

Shuningdek, Zarafshon shahrida (20,8 dan 16,6 promillega), Nurota tumanida (19,6 dan 15,6 promillega), Karmana tumanida (16,3 dan 13,7 promillega), Uchquduq tumanida (14,5 dan 12,3 promillega), Navoiy shahrida (16,9 dan 14,9 promillega), Konimex tumanida (12,6 dan 10,5 promillega), Navbahor tumanida (15,1 dan 13,6 promillega), Tomdi tumanida

(8,4 dan 7,1 promillega), Qiziltepa tumanida (16,7 dan 15,7 promillega) va Xatirchi tumanida (17,8 dan 17,4 promillega) kamayish kuzatildi.

Viloyat bo‘yicha ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni

(yanvar-iyun oylarida, kishi)

	Ko‘chib kelganlar		*Ko‘chib ketganlar*		*Migratsiya saldosi*	
	2025	*2026*	*2025*	*2026*	*2025*	*2026 1)*
Jami	**7 694**	**9 884**	**8 357**	**11 604**	**-663**	**-1 720**
Navoiy sh.	3 341	3 624	2 083	3 244	1 258	380
Zarafshon sh.	1 205	1 505	1 063	2 045	142	-540
G‘ozg‘on sh.	6	10	15	26	-9	-16
Karmana	1 161	1 639	1 073	1 390	88	249
Konimex	13	205	443	519	-430	-314
Qiziltepa	510	525	740	801	-230	-276
Navbahor	344	540	625	657	-281	-117
Nurota	132	177	450	534	-318	-357
Tomdi	105	458	252	310	-147	148
Uchquduq	442	573	555	760	-113	-187
Xatirchi	435	628	1 058	1 318	-623	-690

Viloyat bo‘yicha ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni
(yanvar-iyun oylarida, kishi)



Migratsiya. Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2026- yilning yanvar-iyun oylarida viloyat bo‘yicha ko‘chib kelganlar soni 9 884 kishini, shu davr mobaynida ko‘chib ketganlar soni esa 11 604 kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig‘i manfiy 1 720 kishiga (2025- yilning yanvar-iyunida manfiy 663 kishi) teng bo‘ldi.

Viloyat hududida migratsiya qoldig‘i Xatirchi tumanida (manfiy 690 kishiga), Zarafshon shahrida (manfiy 540 kishiga), Nurota tumanida (manfiy 357 kishiga), Konimex tumanida (manfiy 314 kishiga), Qiziltepa tumanida (manfiy 276 kishiga), Uchquduq tumanida (manfiy 187 kishiga), Navbahor tumanida (manfiy 117 kishiga) va G‘ozg‘on shahrida (manfiy 16 kishiga) kamayish kuzatildi.

Viloyat hududida migratsiya qoldig‘i Navoiy shahrida (380 kishiga), Karmana tumanida (249 kishiga) va Tomdi tumanida (148 kishiga) oshgani kuzatildi.